

MHXS BO'YICHA BIRINCHI HISOBOT TAYYORLASH MUAMMOLARI VA O'TISH NATIJASIDA ERISHILADIGAN AMALIY AFZALLIKLAR

Ilmiy rahbar: Prof. v.b. Xusinov I.

TMI magistranti: Abdug'aniyev M.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2020 yil 24 fevraldagি PQ-4611 qarori talablari bo'yicha hisobotlarni tayyorlashni boshlagan kompaniyalar soni ortib bormoqda. Ushbu qaror kompaniyalardan bir qancha qonunchiligining normalariga va hisobot foydalanuvchilari (banklar, birjalar, aktsiyadorlar) talablari asosida hisobotlarni shakllantirishni talab etadi. Shuning uchun, bugungi kunda MHXS bo'yicha birinchi hisobotlarni tayyorlash muammolari o'z dolzarbligini va ahamiyatini ko'rsatmoqda. MHXS bo'yicha birinchi hisobotni tayyorlash qiyin vazifa bo'lib, katta resurslarni talab qiladi. Birinchi dasturning asosiy muammolari haqida kompaniyalarning xabardorligi bunday qiyinchiliklarga oldindan tayyorgarlik ko'rish va MHXS bo'yicha birinchi hisobotlarni tayyorlash xarajatlarini kamaytirishga imkon beradi. MHXSdan birinchi foydalanish muammolari ham uslubiy, ham tashkiliy bo'lishi mumkin. Uslubiy qiyinchiliklar birinchi MHXS bo'yicha moliyaviy hisobotlarini tayyorlash uchun MHXS talablarini talqin qilish va amaliy qo'llash, bir qator transformatsiya, konvertatsiya qilish, retrospektiv qo'llash bilan bog'liq. Tashkiliy muammolar birinchi MHXS talablarini bo'yicha moliyaviy hisobotlarini tayyorlash va tekshirish jarayonini shakllantirish, birinchi MHXS moliyaviy hisobotlarini tayyorlash vaqtini sifatini nazorat qilish va boshqa masalalar bilan bog'liq.

Shu nuqtai nazardan, MHXSga o'tish natijasida quyidagi amaliy afzalliklarni ko'rsatib o'tish mumkin:

- Aktivlarni baholashning bozor mexanizmlari – amalda aktivlar va majburiyatlarning dastlabki qiymati va uning joriy bozor qiymatidan foydalanish

investor uchun ham tashkilotning o'zi uchun ham samarali qarorlar qabul qilishga yordam beradi;

- moliyaviy instrumentlarni qo'llash qulayligi – MHXS hujjatlari zamonaviy biznes yo'nalishlari va operatsiyalarni aks ettirish usullarini yetarli darajada tez-tez qayta ko'rib chiqilishi mamlakatda moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini oshiradi;

- Aktivlar qadrsizlanishini o'z vaqtida aks ettirish – amaldagi hisob standartlari aktivlar qadrsizlanishi riski bo'yicha choralar ko'rishni talab etmaydi. Natijada yirik kompaniyalarda aktivlar summasining oshirib ko'rsatilish riskini yuzaga keltiradi. MHXS standartlari bunday risklarning oldi olinishi uchun zaruriy talablarni qo'yadi;

- Shartli aktiv va baholangan majburiyatlar bo'yicha aniq ko'rsatmalar – foydalanuvchilar to'g'ri qaror qabul qilishlari uchun nafaqat hujjatlarga asoslangan operatsiyalar to'g'risidagi axborot, balki kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalar oqibatini joriy hisobotlarda aks ettirish ham muhim ahamiyat kasb etadi;

- Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar tuzish – ko'pchilik yirik kompaniyalar o'zining tarkibiga kiruvchi korxonalarni hisobga olgan holda jamlama hisobotlarni tuzmoqda, lekin ularni tuzishda zamonaviy konsolidatsiyalash mexanizmlarini hisobga olmasligi, ushbu kompaniyalar guruhining haqiqiy ahvoli ko'rinxay qolishiga sabab bo'lmoqda. MHXS bo'yicha konsolidatsiyalashgan hisobot moliyaviy hisobotning alohida maxsus tarkibiy qismi hisoblanadi va unga nisbatan maxsus talablar mavjud.

Muxtasar aytganda, MHXSga o'tish va MHXSni belgilangan tashkilotlar tomonidan muvaffaqiyatli tatbiq etish nafaqat kompaniya istiqbolini ta'minlaydi, balki butun iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Buni amalga oshirish uchun oldimizda turgan vazifalar va qiyinchiliklarni samarali va belgilangan muddatlarda hal etilishi lozim

O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar jalb qilish uchun muayyan sharoit yaratish, jumladan, vatanimiz iqtisodiy sub'ektlari faoliyatining shaffofligi va aniqligiga erishish zarur. Bu masalani amalga oshirish moliyaviy hisobotlarning umumqabul qilingan jahon standartlarini – moliyaviy hisobotning xalqaro

standartlarini qo'llash bilan bog'liq. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyoti tomon harakatiga tushdi. Bu jarayonda sovetlarning buxgalteriya uslublaridan voz kechildi va moliyaviy hisobotlar jahonda qabul qilingan tamoyillarga o'ta boshladi. Jumladan, qonun bilan quvvatlangan turli milliy buxgalteriya standartlari ishlab chiqildi, buxgalterlar uyushmalari qoshida xalqaro buxgalteriya amaliyotlarini o'rgatish va buxgalterlarni sertifikatlash tizimlari shakllandi. O'zbekistonda yuritilgan qonunchilik, ta'lim va malaka oshirish amaliyotlarining yakuni MHXS bilan to'la uyg'unlashuvga olib kelishi kutilgan edi. So'nggi yillarda respublikamizda faoliyat yuritayotgan iqtisodiy subyektlarning xorijlik hamkorlar bilan xalqaro aloqalar doirasi sezilarli darajada kengaymoqda, va o'z o'zidan buxgalteriya hisobotlaridan xorijiy foydalanuvchilar hajmi ham ortmoqda. Shu munosabat bilan BHMS bo'yicha tuzilgan moliyaviy hisobtlarni kompaniyalarning aksiyalari xalqaro fond bozorlarida kotirovka qilinadigan aksiyadorlik jamiyatlari uchun MHXSga muvofiq o'zgartirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Jamboqieva G.S. "Moliyaviy hisob" // O'quv qo'llanma - 2012
2. Djambakieva G.S. "Moliyaviy hisob va hisobot" // Darslik 2018
3. Abdullaev R. "Buxgalteriya hisobi va audit"// Darslik – Samarqand 2010
4. Bogataya I. N. "Buxgalteriya moliyaviy hisobi": darslik / I. N. Bogataya, N. N. Xaxonova . – M.: KNORUS, 2011. – S.

Internet saytlari :

5. www.mfa.uz (O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi)
6. www.lex.uz (Me'yoriy hujjatlarning elektron ma'lumotnomasi)
7. www.norma.uz (Me'yoriy hujjatlarning elektron ma'lumotnomasi)
8. www.tfi.uz (Toshkent moliya instituti)
9. www.scopus.com (Bibliografik ma'lumotlar bazasi)
10. www.nuz.uz (yangiliklar sayti)